

AMERIKA “YO’QOTILGAN AVLOD” ADABIYOTI: URUSH FOJIASI VA ADABIY MEROS

Siddiqova Iroda Boxodir qizi

Namangan davlat universiteti

siddiqovairodabaxodirovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yo‘qotilgan avlod” tushunchasi va uning Amerika adabiyoti va madaniyatidagi o‘rni hamda Birinchi jahon urushidan keyin shakllangan ushbu adabiy va madaniy harakat vakillarining hayotga bo‘lgan qarashlari, ruhiy tushkunlik, umidsizlik va begonalik mavzulari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yo‘qotilgan avlod, Birinchi jahon urushi, Richard Aldington, Vera Brittain, Urush adabiyoti, Ruhiy travma, Begonalik, Modernizm, “Death of a Hero”, “Testament of Youth”, Gender tengsizligi, Adabiyotda ayol nigohi, Urush va madaniy inqiroz.

“Yo‘qotilgan avlod” tushunchasi urushdan omon qolgan ko‘plab insonlar o‘z orzu-umidlari, hayotga bo‘lgan qiziqishlari, yo‘nalishlarini yo‘qotib, sarson-sargardon, yo‘l-yo‘riqsiz ruhiy tushkunlikka tushganlarga nisbatan ishlatilgan. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti ham aynan Birinchi jahon urushida ishtirok etib, vatanga qaytib o‘zligini topa olmagan avlod vakillari bayon etilgan ijodkorlar turkumidagi adabiyotga aytiladi. Shu bilan birga ushbu istiloh o‘sha davr ijodkorlarining shaxs sifatida dunyoqarashi, tushunchalari, hayotiy qadriyatlarining qayta tug‘ilishi ramzi sifatida ham tushuniladi. ¹

“Yo‘qotilgan Avlod” atamasining manbai Parijda yashagan amerikalik yozuvchi Getrud Stayn bilan bog‘liq bo‘lib, u bu tushunchani urushdan keyin o‘z yo‘lini topolmayotgan yosh avlodni tasvirlash uchun ishlatgan. Bu ibora keyinchalik Ernest Hemingueyning “The Sun Also Rises” (Quyosh baribir chiqaveradi, 1926) romanida epigraf sifatida qo‘llanilib, keng ommaga tanitilgan. Heminguey ushbu asar orqali o‘z davrining umidsizlik va ma‘nosizlik muammolarini ochib bergan.

¹ Choriyeva Shahnoza Shuhratovna. Ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazining badiiy o‘ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida). Toshkent-2022

Tarixiy sharoit nuqtai nazaridan, 1914–1918-yillardagi Birinchi Jahon urushi insoniyat tarixida chuqur iz qoldirdi. Urush texnologiyalarining rivojlanishi va millionlab insonlarning nobud bo‘lishi natijasida ilgari mavjud bo‘lgan taraqqiyotga bo‘lgan ishonch izdan chiqdi. Urush qatnashchilari va undan keyin voyaga yetgan avlod uchun jamiyatga qaytish, qadimiy qadriyatlarni qabul qilish mushkul bo‘lib qoldi.

Urushdan keyingi davr — “Gullab-yashnagan Yigirmanchi Yillar” — tashqi ko‘rinishda iqtisodiy yuksalish, musiqa va iste’molchilik madaniyati bilan ajralib turgan bo‘lsada, aslida ko‘plab ijodkorlar uchun bu davr ichki bo‘shliq va hayotiy maqsad yetishmasligi bilan bog‘liq edi.

Bu davrda yozuvchilari asosan quyidagi asosiy mavzular va uslublar bilan ijod qilganliklari bilan ajralib turadi.

- Umidsizlik va Tanqid: An’anaviy qadriyatlarga va Amerikaning Orzu g‘oyasiga nisbatan shubha va kinoya.

- Begonalik va O‘zlikni Izlash: Qahramonlar ko‘pincha o‘z jamiyatidan ajralgan, ma’nosiz hayotga duch kelgan bo‘ladi.

- Urushning Fojiali Ta’siri: Urush inson ruhiyatiga qanday zarar yetkazishini ko‘rsatish.

- Modernistik Eksperimentlar: Adabiy shakllarni yangilash, ong oqimi texnikasi va minimalizmga e’tibor qaratish.

“Yo‘qolgan Avlod” harakati bir necha mashhur yozuvchilar va san’atkorlarni o‘z ichiga oladi. Ularning asarlarida begonalik, umidsizlik va hayot ma’nosini izlash kabi mavzular aks etadi. Eng asosiy vakillaridan biri - Ernest Heminguey. Oddiy va sodda uslubda yozgan Hemingueyning “The Sun Also Rises” (1926) va A Farewell to Arms (Qurol bilan xayrlashuv, 1929) asarlarida urushning befoyda fojiasi va insonning chidamliligi tasvirlanadi.²

Ushbu davrning yana bir mashxur namoyondasi - F. Skot Fitzjerold. U “The Great Gatsby” (Buyuk Getsbi, 1925) asarida boylik va hashamat ortida yashiringan

²Hemingway, Ernest. The Sun Also Rises. New York: Scribner, 1926.

ma'naviy inqirozni fosh etadi. Shuningdek, Amerikaning "Orzu" g'oyasining soxta tomonlarini ochib beradi.³

Richard Aldington ingliz modernizm adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, Birinchi jahon urushida qatnashgan va bu tajriba uning asarlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. U o'zining mashhur asari "Death of a Hero" (Qahramonning O'limi, 1929) orqali urushning romantik va qahramonlik timsolini butunlay inkor etadi. "Death of a Hero" romanida Aldington urushni shafqatsiz va be'manilik bilan tasvirlaydi. U bosh qahramon Jorj Uinterburn obrazi orqali yosh avlodning orzu-umidlari qanday qilib urushda barbod bo'lishini ko'rsatadi. Roman klassik qahramonlik g'oyalarini tanqid qiladi, urushda "qahramonlik" emas, balki insoniylikni yo'qotish markaziy mavzu bo'lib qoladi. Aldington urushni romantiklashtirgan qadriyatlarni tanqid qilib, zamonaviy jamiyatning axloqiy inqirozini ko'rsatadi.

Aldingtonning "Yo'qotilgan Avlod" dagi o'rni: Uning asarlari Heminguey yoki Fitzjeroldniki kabi urushdan keyingi umidsizlik, begonalik va ma'nosizlikni aks ettiradi. U urushni faqat tarixiy voqea sifatida emas, balki butun bir avlodning ruhiy fojiasi sifatida tasvirlagan.

Vera Britten ingliz yozuvchisi, tarixchi va tinchlik faoli bo'lib, urushning insoniy oqibatlarini tasvirlashda muhim rol o'ynagan. Uning eng mashhur asari — "Testament of Youth" (Yoshlik Vasiyati, 1933) — xotira janridagi muhim adabiy meros bo'lib, Birinchi jahon urushining yosh avlod hayotiga ko'rsatgan ta'sirini ochib beradi. "Testament of Youth" autobiografik asar bo'lib, Brittenning urushdan oldingi orzulari va urushdan keyingi chuqur ruhiy jarohatlari haqida hikoya qiladi. Asarda urush paytida Britten ko'plab yaqinlarini, jumladan unashtirilgan yigitini va do'stlarini yo'qotganini tasvirlaydi. U urushning ayollar hayotiga ta'siri va gender tengsizligi mavzulariga ham e'tibor qaratgan hamda, uning asarlari boshqa yozuvchilardan farqli o'laroq, ayol nigohi orqali urushning fojiali oqibatlarini

³Fitzgerald, F. Scott. *The Great Gatsby*. New York: Charles Scribner's Sons, 1925.

ko'rsatadi. U urushga qarshi tinchlik harakati faoli bo'lib, urushning befoydaligi va insoniy qadriyatlarni yo'qotish haqida ochiq va halol gapirgan.⁴

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Yo'qolgan Avlod" adabiyoti Amerika madaniy merosida o'chmas iz qoldirdi. Ularning hayotiy haqiqatga sodiqligi va zamonaviy dunyoning murakkabliklarini ochib berishga bo'lgan intilishi yangi avlod yozuvchilariga ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Ularning iste'molchilik jamiyatini tanqid qilgan, axloqiy qadriyatlardagi bo'shliqlarni ochib bergan asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Heminguey, Fitzjerald va ularning zamondoshlari adabiyot orqali jamiyatning eng chuqur muammolarini aks ettira olgan.

Hemingueyning "The Sun Also Rises" asaridagi mashhur ibora bilan yakunlaymiz:

"Sizlar hammangiz yo'qolgan avlodsiz."

Bu oddiy, ammo kuchli jumla faqat bir guruh yozuvchilarni emas, balki urush fojiasi, hayotiy ma'no izlash va zamonaviy jamiyatning murakkabliklari bilan kurashgan butun bir avlodni tavsiflab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyeva Shahnoza Shuhratovna. Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida). Toshkent-2022.
2. Hemingway, Ernest. The Sun Also Rises. New York: Scribner, 1926.
3. Fitzgerald, F. Scott. The Great Gatsby. New York: Charles Scribner's Sons, 1925.
4. Choriyeva Shahnoza Shuhratovna. Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida). Toshkent-2022.

⁴ Choriyeva Shahnoza Shuhratovna. Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida). Toshkent-2022